

**ETNOLOGIYA. ETNOGRAFIYA. ANTROPOLOGIYA
ETNOLOGY. ETHNOGRAPHY. ANTHROPOLOGY****Feruza Hayitova***(Toshkent, O'zbekiston)*

feruza@inbox.uz

**Ziyoratgoh va qadamjolar
o'tkaziladigan marosimlar: an'anaviylik va
transformatsion jarayonlar****Abstrakt**

Maqoladagi ma'lumotlar Qashqadaryo viloyatidagi muqaddas ziyoratgohlarni o'rganish yuzasidan o'tkazilgan dala tadqiqotlariga asoslanadi. Mahalliy aholining ziyoratgohlarga bo'lgan ishonch va e'tiqodlari kuzatuvlar natijasida tahlilga tortilgan. Shuningdek, ziyoratgohlar bilan bog'liq urf-odat va marosimlar, diniy qarashlar, ziyorat kunlari haqida ma'lumot beriladi. Ularning aholi ruhiyatiga ta'siri, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda oilaviy muammolarning yechimlarini topishda muhim ahamiyat kasb etishi yoritib berilgan.

O'zbekiston nafaqat Sharq, balki jahon tamadduni beshiklaridan biri bo'lgani dunyoga ma'lum. Aynan mazkur zamin g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar tutashgan mintaqaga hisoblanadi. Yurtimiz hududlarida bir vaqtda ilk kishilik manzillari joylashgan deb taxmin qilinayotgani, ushbu zaminning tarixi naqadar ko'hna ekanligidan dalolat beradi. Ular o'zining qadimiyligi, turli din va madaniyatlar, e'tiqod va tushunchalarni o'zida ifoda etishi bilan qimmatga molikdir. Muqaddas ziyoratgohlar, maqbaralar, qadamjolar diniy va milliy qadriyatlardan sanaladi. Asrlar davomida va hozirgi kunda ham kishilar hayotining ajralmas bo'lagi hisoblangan diniy-madaniy ob'yektlarimizni o'rganish va saqlash ham zaruratga aylangan. Mazkur joylardagi amallar ham o'zining milliy, diniy, psixologik hamda tarixiy ildizlariga ega. Ularni ilmiylik asosida chuqur o'rganish yurtimiz ma'naviy hayotining yuksalishiga, an'ana va urf-odatlarning saqlanib, yashab qolishiga ko'maklashadi.

Kalit so'zlar: ziyoratgohlar, qadamjolar, sajdagoh, chillaxona, urf-odatlar, marosimlar.

Muallif haqida: *Hayitova Feruza Muxtarovna* – mustaqil tadqiqotchi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

Iqtibos uchun: Hayitova, F. M. 2019. “Ziyoratgoh va qadamjolarida o‘tkaziladigan marosimlar: an’anaviylik va transformatsion jarayonlar”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 3: 71—81.

Kirish

Bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston Respublikasida, balki butun dunyo miqyosida ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolarni o‘rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ziyoratgohlar har bir xalqning tarixi, urf-odatlarini, diniy qarashlari, ishonch-e‘tiqodi hamda millat ruhiyatini o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, insoniyat tarixida yuz bergan qonli to‘qnashuvlar, tabiiy ofatlar, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar qatorida oilaviy muammolarni bartaraf etish va ularning yechimlarini topishda ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Keyingi yillarda o‘zbek xalqining qadimiy tarixi va boy madaniy merosini tiklash hamda uni dunyo jamoatchiligiga yetkazish borasida ko‘plab amaliy ishlar bajarilmoqda. O‘zbekistonning janubiy vohalaridan biri Qashqadaryo viloyati ham ko‘p asrlik moddiy va ma’naviy merosga ega “etnografik o‘choq”lardan hisoblanadi. Hududda o‘troq va ko‘chmanchi aholining urf-odat va marosimlari o‘zaro uyg‘unlashib ketgan. Viloyatning tabiiy iqlimi, geografik hududiga ko‘ra tog‘ va cho‘l qismlaridan iborat ekanligi xilma-xillikni yuzaga keltiradi. Tog‘larda, cho‘l hududlarida, past-tekisliklarda joylashgan diniy-madaniy ob‘yektlar xalqning turli xildagi e‘tiqod manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Ularning har biri tarixi, obro‘sig a qarab darajalanadi.

Janubiy O‘zbekiston ziyoratgohlarini mavqeiga qarab quyidagicha tabaqalashtirish mumkin:

1. *Respublika miqyosidagi ziyoratgohlar.* Bularga Langar ota (Qamashi tumani), Hazrati Bashir (Kitob tumani), Xoja Ubaydo Jarroh (Qarshi shahri) kabi ziyoratgohlar kiradi.

2. *Mahalliy ziyoratgohlar.* Bularga Makka Said ota, Tutak ota, Qo‘turbuloq ota (Yakkabog‘ tumani), Ko‘hna Fazli, Mirhaydar Sulton (Kasbi tumani), Arslonbob (Shahrisabz tumani), Oqsuv (Kitob tumani) ziyoratgohlari kiradi.

O‘zbek xalqining azaliy ishonch-e‘tiqodlariga ko‘ra ziyoratchilar muqaddas dargohlarga o‘zgacha hurmat bilan munosabatda bo‘lishgan. Bu ko‘pincha kishilarda bo‘lib o‘tadigan ruhiy holatlar bilan bog‘liq holda kechadi. Ya’ni, ziyorat qilish jarayonida mahalliy aholi o‘zlarini butunlay o‘sha joy bilan bog‘liq holda tasavvur qiladilar. Ziyorat qilish davomida ma’lum bir vaqt dunyo g‘amtashvishlarini unutib, yengil tortadilar. Aziz-avliyolarning ruhlari

bilan g'oyibona fikrlashishga harakat qilishadi va ulardan madad so'rashadi. Ziyoratdan so'ng odamlar aksariyat o'zlarida ruhiy yengillik sezganlar.

Ziyoratgohlar, mozorlar, qadamjolar oldidan o'tayotgan yo'lovchilarda an'ana tusiga kirgan odat bor. Ular xoh piyoda, xoh ulovda bo'lishsa ham albatta to'xtab, o'sha ziyoratgohni ziyorat qilib, so'ngra yo'lida davom etishadi. Bu holat kishilarning ishonch-e'tiqodi bilan bog'liq, aks holda ko'ngillarida tug'ilgan shubha-gumonlar tufayli ular o'zlarini yomon sezishlari mumkin.

O'zbekistonning janubiy vohalaridagi mahalliy aholi orasida haftaning ma'lum bir kunlari maxsus ziyorat qilinadigan kunlar tariqasida belgilab olingan. Chorshanba va shanba kunlari aziz-avliyolar qabrlarini, muqaddas joylarni ziyorat qilish eng maqbul kunlar hisoblanadi. Bu kunlar aholi orasida murodbaxsh kunlar deb qaraladi.

Ziyoratchilar turli maqsadlarda tashrif buyuradilar: baxtsizlik, omadsizlik kabi qiyin vaziyatlarga tushib qolgan kishilar, baxti ochilmagan yigit-qizlar, farzandsiz oilalar. Yoki aksincha, baxtiyor kunlarning shukronasi sifatida ishlari yurishib ketgan vaqtda, tug'ilgan go'dakni olib kelish kabi mahalliy aholining urf-odatlarini shular jumlasidandir. Ziyoratga keluvchilarning asosiy qismini ayollar tashkil etadi. Yana kishilarning tushunchalariga ko'ra ziyoratgohlarga keluvchi ziyoratchi millati va kelib chiqishidan qat'i nazar muqaddas qadamjolar hovlisiga kirishlaridan oldin ushbu ziyoratga hurmat yuzasidan ayollar boshiga ro'mol o'rab, erkaklar esa do'ppi kiyishadi.

Ziyoratgohlarda bajariladigan ko'plab rasm-rusumlarning tahlili shundan dalolat beradiki, bajariladigan udumlarning ayrimlari kelib chiqishi islomgacha bo'lgan e'tiqod va qarashlar bilan ham bog'liq. Jumladan, maqbara va qabrlarni aylanishda bu yerdagi aziz-avliyolar bilan g'ayritabiiy aloqaga kirishish, niyat qilib turli lattalar bog'lashda ziyoratchi bilan e'tiqod ob'yekti o'rtasidagi afsungarlik aloqasini, nazr-niyozi qilib qurbonlik qilishda islomiy e'tiqodlarning uyg'unlashuvini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonning janubiy mintaqalarida aziz-avliyolar qabri joylashgan yerlar va muqaddas qadamjolar asosan ziyorat maskani bo'lishi bilan birga ba'zida turli millat va elat vakillarining bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarini namoyon etuvchi joy ham hisoblanadi. Ko'plab mahalliy aholi haftaning barcha kunlarida ham to'xtovsiz ravishda boradigan "Hazrati Bashir", "Langar ota" ziyoratgohlarida o'ziga xos etnoslararo munosabatni ko'rish mumkin. Uzoqdan ke-

luvchi ziyoratchilarning asosiy qismini shahar va shahar atrofidagi turli millat vakillari tashkil etadi.

Ixlos – xalos

Ziyoratgohlarni aholi turli kasalliklarga shifo topuvchi muqaddas qadamjolar sifatida ziyorat qilib kelganlar. Shu sababdan har bir ziyoratgoh qaysidir kasallikka shifo berish xususiyatiga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan, shamollashni va yo'talni davolovchi ziyoratgohlar jumlasiga Yakkabog' tumani Tutak qishlog'idagi asl nomi Shodi Shayx bo'lgan Tutakota ziyoratgohini kiritishimiz mumkin. Bu yerga ko'proq surunkali tomoq og'rig'i bilan shamollagan, xalq tilida "ko'k yo'tal" bo'lgan yosh bolalarni olib borishadi. Ziyoratgohga kiraverishda ko'k rangli xarsangtosh bo'lib, uning ustiga shu yerdagi buloq suvidan olib, toshning qiya tarafidan quyishadi. Suv pastga maxsus idishga tushadi. Bu hol uch marta takrorlangandan so'ng bolaga ichiriladi. Mahalliy aholining bergan ma'lumotlariga qaraganda, bolalar ushbu yo'sinda "ko'k yo'tal" kasaliga shifo topishadi. Garchi bu tibbiy asosga ega bo'lmasa-da, xalq orasida "irimi shunday" degan tushuncha mavjud.

Tanadagi turli yara va so'gallarni davolovchi ziyoratgohlarning suvi va tuprog'i shifobaxsh, davolovchi xususiyatga ega deb qaraladi. Masalan, Kasbi tumani Qamashi qishloq qabristonidagi avliyo "Qo'shchalishota" qabri ostidagi tuproq mahalliy aholi tomonidan ilohiy davolash xususiyatiga ega deb tushuniladi. Ziyoratchilar qabr tagidan tuproq olib, qabrtosh ustiga suv bilan aralashtirib, shu yerning o'zida "irimi shu bo'lsin" deb so'galiga surishadi. Ularning bergan ma'lumotlariga qaraganda ma'lum vaqt o'tgandan so'ng so'gal yo'qolib ketar ekan [Hayitova 2012, 30].

O'zbekiston janubida tabiat mo'jizalari hisoblangan buloqlar ham anchagina. Bu buloqlarning suvlari shifobaxsh xususiyatga ega. Yakkabog' tumanida Qo'tirbuloq ota ziyoratgohiga mahalliy aholi asosan haftaning chorshanba va juma kunlari borishadi. Tashrif buyuruvchilarning asosiy qismini yosh bolali onalar tashkil etadi. Ular asosan "Chilla" yoki "Chilla tushdi" deb nomlanadigan teri kasalligiga shifo izlab borishadi. Bu kasallik chaqaloqlarning chilla davrida uchraydigan teri kasalligi bo'lib, ko'pgina hollarda tananing yuqori qismlarini qamrab oladi. Shuningdek, qirq kunlik chilla xalq tasavvurida chaqaloq bilan uning onasini ins-jinslar ta'siridan asrash, ularning chilla davri tartib-qoidalariga qanchalik rioya qilishlariga bog'liq bo'lgan. Chilla inson hayotida o'zini saqlashi lozim bo'lgan eng ma'suliyatli davr hisoblanadi [Аширов 2007, 15].



1-rasm. Xo'ja Muyin an-Nasafiy ziyoratgohidagi chillaxona.

Bu yerdagi mahalliy aholining bergan ma'lumotlariga qaraganda "Ixlos-xalos"dir. Ya'ni, chin ixlos bilan borilsa, albatta dardiga shifo topadi [Hayitova 2012, 35]. Shuningdek, bepushtlik va farzandsizlik bilan bog'liq mozorlar ham O'zbekistonning janubiy vohalarida ko'pchilikni tashkil etadi. Nazarbobo (Kasbi tumani), Makka Said ota, Tutak ota (Yakkabog' tumani) ziyoratgohlariga mahalliy aholi tushunchasiga ko'ra ixlos bilan borilsa, befarzand ayollar onalik baxtiga muyassar bo'lishadi. Shuning uchun Nazarbobo ziyoratgohiga tashrif buyuruvchilarning ko'pchiligini befarzand ayollar tashkil etadi. Kelin ko'p yillar davomida farzand ko'rmasa, bu yerga tashrif buyurib, ziyoratgoh hovlisidagi daraxtga niyat bilan o'zining boshidagi ro'molini yechib, bog'lab ketadi. Agar kelin ma'lum vaqt oralig'ida homilador bo'lsa, bu yerga yana ikkinchi marotaba tashrif buyurib, o'sha yerning o'zida "is chiqaradi".

Is chiqarish – bu mahalliy aholi orasida shu yerda yotgan avliyo ruhini rozi qilish deb qaraladi (2-rasm). Buning uchun ular o'zlarining sharoitidan kelib chiqqan holda xo'roz, echki yoki qo'y olib kelib so'yib, shu yerning o'zida uni pishirib, ziyoratga kelgan odamlarga ulashadilar. Mahalliy aholining bergan ma'lumotlariga qaraganda, o'sha ovqatdan qanchalik ko'p odam iste'mol qilsa, shuncha savobi ko'p bo'ladi [Hayitova 2012, 25].

Islom dinida Ibrohim payg'ambar Alloh taoloning buyrug'iga ko'ra, o'z o'g'li Ismoilni qurbon qilishga qaror qilganlarida, Alloh taolo uni to'xtatib, bolaning o'rniga qo'chqor so'yishni buyurgan. Ushbu an'anaga ko'ra mazkur ziyoratgohlarga tashrif buyurgan odamlar sharoitidan kelib chiqqan holda tovuq, xo'roz, qo'y, echki, ya'ni, "jonliq"ni qurbonliq qilishadi, yana cho'zma, bo'g'irsoq ham pishiriladi. Jonliqning bir qismini shu yerda pishirib, qolgan qismini

shu mozorning shayxlariga ehson qilishadi [Hayitova 2012, 30]. Niyat qilgan kishilar qurbonliq qilganlaridan so'ng, barcha yomon illatlardan ozod bo'lgandek, o'zlarini yengil, osoyishta sezadilar. Kelinlar marosim oxirida o'tgan safar kelib, bog'lagan ro'molini yechib, o'zi bilan birga olib ketadi. Bu kishilarning ruhiyatida kechadigan holatlar – kuchli ishonch, umid, ixlos qilish kabi jarayonlar natijasi sifatida yuzaga chiqadi.



2-rasm. Chiroq yoqish marosimi bajariladigan joy. Xo'jai Mo'yin.

Ostona bilan bog'liq tushunchalar

Ziyoratgohlarda ayollar ishtirokida bo'lib o'tadigan ostona bilan bog'liq bajariladigan odat va qarashlar ham mavjud. Ziyoratchi ayollar bu joydagi mozor bo'sag'asini yaxshi niyatda supuradilar. Supurish talab va istakni bildirishning bir shakli sifatida xalqimizda qadimdan qolgan odat hisoblanadi. Jumladan, Mirishkor tumanidagi Ko'hna Fazli mozoriga kelgan ziyoratchi ayollar avval mozor atrofini supurib tozalashadi. Ular uchun bu odat savob ishlardan biri hisoblanadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub ertak va rivoyatlarda podshoh saroyi ostonasini supurish malikaga sovchi kelganini anglatgan. Muqaddas mozorlarni supurish esa avliyolardan madad so'rashni anglatadi, deydi vohaning keksa otaxon va onaxonlari. Ba'zi bir ziyoratchilar mozorni supurgach, uning tuprog'ini turli teri kassalliklariga da'vo sifatida olib ketishadi. Muqaddas mozorlardan olib kelingan suvni esa "kelgan balo daf bo'lsin", degan ma'noda ostonaga sepadilar. Bizningcha, bu qarashlar ajdodlarga ehtirom, ularni ardoqlash bilan bog'liq qarashlar zahirida yuzaga kelgan. Mozor ostonasidagi tuproqqa aziz avliyolarning muborak qadami tekkan, deyiladi. Shu sababdan ostona tuprog'i ham magik qudratga

ega deb tushunilgan. Uning tuprog'i ham shifobaxsh xususiyatga ega deb qaralib, qo'llariga, badanlariga yara-chaqa, so'gal chiqqan kishilar ushbu tuproqdan surishib, uylariga ham olib ketadilar. Olgan tuproqlari uchun sadaqa puli ham qoldiradilar [Hayitova 2012, 40].

Ko'pgina holatlarda befarzand ayollar ham mozor atroflarini supurib, o'zlariga farzand so'raydilar. Bunday ziyoratgohlar qatoriga Qashqadaryo vohasi Nishon tumanidagi Nazarbobo, Yakkabog' tumanidagi Tutakota, Kasbi tumanidagi Ro'ziboy Oxun ziyoratgohlarini kiritishimiz mumkin. Ostoning kult darajasiga ko'tarilishining sababini tadqiqotchi S.Hamdamova quyidagicha izohlaydi: "Mifologik qarashlarga ko'ra, ostona ramziy ma'noda ikki olam chegarasi vazifasini bajaradi. Ostona kultining genezisi ezgu va yovuz makonlar haqidagi mifologik tasavvurlarga bog'lanadi" [Хамдамова 2003, 63]. Baxti ochilmagan qizlar ham supurgi olib ziyoratgohni niyat qilib supurishadi. Ziyoratgoh yonida chillaxona bo'lib, qadimda ba'zi ziyoratchilar qirq kun chillada o'tirib, ruhan poklanganlar. Shuningdek voha aholisi orasida "Ostonaga o'tirma, baxtsiz bo'lasan", degan naql ham mavjud.

Daraxtlar bilan bog'liq tushunchalar

Daraxtlarga latta bog'lash odati ham Janubiy O'zbekiston vohasida asosan ayollar ishtirokida amalga oshiriladi. Ular muqaddas mozorlar atrofidagi daraxtlarga latta bog'laydilar. Aholining ma'lumotlariga ko'ra, muqaddas daraxtlar oldidan o'tayotgan har bir kishi to'xtab bir oz dam olishi kerak va u daraxtga niyat qilib latta bog'lashi lozim. Shunda o'sha kishidagi yo'l charchog'i ham yo'qoladi. Agar bunday qilinmasa, u kishi chalg'ib yo'ldan adashadi va oqibatda halokatga uchrashi mumkin, deb ishonishgan. Bizningcha, muqaddas mozorlardagi daraxtlarga latta bog'lash ziyoratchi bilan muqaddas joy o'rtasidagi ramziy bog'lanishning belgisi bo'lib, har bir ziyoratchi latta bog'lash orqali o'z tilak va istagini ifoda etgan. Rus olimi G.P.Snesarev bu holatni "muqaddas joy bilan ziyoratchi o'rtasidagi magik bog'lanishning o'rnatilishi" [Снекарев 1983, 36], deb izohlagan edi.

Turkiy xalqlarda daraxt shoxlariga o'z kiyimining bir parchasini yirtib latta bog'lash homiy ruhlarga qurbonlik keltirishning bir ko'rinishi hisoblanadi. Agar shunday qilinmasa, homiy ruh tomonidan ziyon yetishi mumkin. Shuningdek, latta bog'lash orqali ziyoratchi muqaddas joyga nisbatan umid va ishonchini namoyish etgan. Istagi ro'yobga chiqqan kishi ikkinchi bor kelib, bog'lagan lattasini yechgan va mozorga atab qurbonlik qilgan.

Qozoq xalqidagi bu odat haqida Cho'qon Valixonov shunday yozadi: "Tabiatning barcha g'ayrioddiy ko'rinishi, masalan, cho'lda o'sayotgan daraxt, shoxlari ajoyib o'simlik ham muqaddas sanalib, ziyoratgoh vazifasini o'tagan. Har bir yo'lovchi, ushbu daraxtga ko'ylakning yoki biron-bir matoning parchasini bog'lab, hayvonni qurbonlik keltirgan" [Абрамзон 1978, 56].

Aytishlaricha, bu yerga uch marta yoki yetti marta ziyoratga kelgan kishi Xudodan nima so'ragan bo'lsa, niyatiga yetadi. Bu amallar aholi orasida qadimdan saqlanib kelayotgan va go'yoki diniy tus olgan udumlardir. Xalqimiz orasida ulug' alloma-yu avliyolarning qadamjolariga borib, ularni ziyorat qilish orqali Xudodan o'z niyatlarini so'rash qadimdan qolgan udumdur. Bunda ular Payg'ambarimizning qabrlarni ziyorat qilish zarurati haqidagi quyidagi hadislariga amal qiladilar: "Qabristonlarni ziyorat qilib turingizlar, zero, u oxiratni eslatadi. Oxiratni eslash esa kishini yovuzlikdan uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi" [Ислом энциклопедияси 2004, 295].

Ziyoratchilar o'z toat-ibodatleri, diniy amallari orqali ham ruhan, ham jismonan poklanishga intiladilar. Ular o'z hissiyotlari orqali Xudoga chin ko'ngildan ibodat qilganliklari uchun o'zlarini ruhan dardlaridan forig' bo'lgandek his qiladilar. Ziyorat ahli uchun avliyolar ularni Alloh bilan bog'lovchi vosita hisoblanadi, ruhlaridan madad so'raydilar. Shu sababdan muqaddas joylarni ziyorat qilish o'zbek xalqining hayotida muhim o'rin tutadi.

Muqaddas mozorlarning mavqei unga dafn etilgan avliyolarning karomatlari bilan belgilanadi. Agar avliyolar hayoti davomida ko'plab sir-asrorlarga to'la karomatlar ko'rsatgan bo'lsa, demak ularning ziyorati ham gavjum bo'ladi.

Ziyoratgohlarda bajariladigan udumlar uzoq vaqtlardan beri amal qilinib kelinayotgani ma'lum. Aholining ziyoratgohlar bilan bog'liq qarashlarida asosiy g'oya bu – ixlos tushunchasidir. Shu bois mozorga ixlos bilan borish ziyoratning bosh mezoni hisoblanadi. Bu haqda shoir Ko'hiy Mozorga ziyoratga faqat ixlos bilan borish mumkinligini yozgan edi [Абдулахатов, Хайдарова, Азимов 2002, 50]. Bu ziyorat davomida bajariladigan har bir udumda ko'zga tashlanadi. Kishilar turmushdagi shaxsiy musibat va omadsizlik, ayniqsa, befarzandlik, yaqin kishilarining baxtsizligi, kasallik yoki o'limdan xavfsirash, yolg'izlik his-tuyg'usi va shu kabi boshqa ijtimoiy-psixologik omillar tufayli insonlarning hissiyotlariga berilishi muqaddas ziyoratgohlarga borishi uchun yetakchi omil bo'lib yo'naltiradi. Bu o'rinda muqaddas joylar va ularda dafn etilgan

avliyolar bilan bog'liq rivoyatlarning roli muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, ularni turli urf-odat va marosimlarga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, ziyoratgohlarning kishilar turmushidagi o'rnini yanada muhim bo'lishini mustahkamlaydi.

Xulosa

Yurtimizda mavjud muqaddas ziyoratgohlar, maqbaralar, qadamjolar diniy va milliy qadriyatlarning bir bo'lagi hisoblanadi. Mazkur joylardagi amallar ham o'zining milliy, diniy, psixologik hamda tarixiy ildizlariga ega. Ularni ilmiylik asosida chuqur o'rganish yurtimiz ma'naviy hayotining yuksalishiga, xalq orasidagi ayrim salbiy odatlarga barham berilishiga, shu bilan birga, ijobiy xislat va urf-odatlarining shakllanishiga yordam beradi. O'sib kelayotgan yosh avlod ongida sog'lom e'tiqod, to'g'ri dunyoqarash, allomalarimiz merosiga nisbatan mehr-muhabbat his-tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi. O'zbekistonning janubiy vohalari bo'lmish Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari qanchadan-qancha tarixiy voqealarni boshidan o'tkazgan. Bu yurtida el orasida mashhur bo'lgan tarixiy shaxslar, allomalar, avliyolar yashab o'tishgan. Aziz-avliyolarning mozarlarini, qabristonlarni ziyorat qilib turish islom dinida savob ish sanaladi. Ziyoratgohlarga borish ham diniy qadriyat hisoblanadi. Qolaversa, ziyorat va ziyoratgohlar o'zbek xalqining asosiy etnomadaniyatlaridan biri bo'lib, aholini ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yurtimizda saqlanib kelayotgan ziyoratgoh va qadamjolarini asrash barchaning burchi. Chunki, ularda xalqning ruhiyati, ma'naviyati, o'zligi aks etib turadi. Shu bois ularni xalq ma'naviyatining ko'zgusi deya ta'riflash mumkin. Biroq ziyoratgohlar va ularda o'tkaziladigan urf-odat va marosimlarni dabdababozlikka aylantirib yubormaslik zarur. Umuminsoniy qadriyatlarining tarkibiy qismi bo'lgan urf-odat, an'alarini o'rganish millat oldida turgan o'zligini saqlash va kelajak avlodlarga ham olib o'tish kabi xayrli vazifaning amaliy natijasidir.

Adabiyotlar

- Абдулахатов, Н., Хайдарова, З., Азимов, О. 2002. *Биби Убайда тарихи*. Фарғона.
- Абдулахатов, Н. У. 2008. *Место паломничества в жизни населения Ферганской долины (по материалам святых мест Ферганской вилоята)*. Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент.
- Абрамзон, С. М. 1978. "Предметы культа казахов, киргизов и каракалпаков". *Материальная культура и хозяйство народов Кавказа, Средней Азии*

и Казахстана 56. Л.: Наука.

Аширов, А. 2007. *Ўзбек халқининг эътиқод ва маросимлари*. Тошкент.

Ҳамдамова, С. 2003. “Фурқат лирикасида остона образи”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 5: 63-65. Тошкент.

Ҳайитова, Ф. 2012. *Дала тадқиқотлари*: Касби тумани.

Ҳайитова, Ф. 2011. *Дала тадқиқотлари*: Яккабоғ тумани.

Ҳайитова, Ф. 2012. *Дала тадқиқотлари*: Нишон тумани. Мерганча қишлоғи.

Ҳайитова, Ф. 2011. *Дала тадқиқотлари*: Шаҳрисабз тумани.

Ҳайитова, Ф. 2012. *Дала тадқиқотлари*: Қашқадарё вилояти. Шаҳрисабз тумани. Темирчи қишлоғи.

Ислом энциклопедияси. 2004. З. Ҳусниддинов таҳрири остида. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

Снесарев, Р. П. 1983. *Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии*. Москва: Наука.

Feruza Hayitova

(Tashkent, Uzbekiston)

feruza@inbox.uz

Conducted in Shrines and Sanctuaries Rituals: Traditionalism and Transformative Processes

Abstract

The information in this article is based on field research devoted to the study of sacred sites in Kashkadarya region. The observations and beliefs of the local population as regards the places of pilgrimage were analyzed. It also provides information about pilgrim customs and ceremonies, religious views, and dates of pilgrimage. Their impact on the psyche of the population has been highlighted, as well as the importance of finding solutions to family problems along with socio-economic issues.

It is well known that Uzbekistan is one of the cradles of not only the East but also of the world civilization. It is a region with a wide variety of religions and cultures. The fact that the territory of our country is supposed to be inhabited by pre-historic people at the same time, is the evidence of the ancient history of this land. They are valuable because of their antiquity, the expression of various religions and cultures, beliefs and concepts. Sacred shrines, temples and holy places are considered religious and national values. It has become necessary to study and preserve our religious and cultural sites, which have been an integral part of human life for centuries and today. Actions in these areas also have their national, religious, psychological and historical roots. In-depth study of them helps

to improve the spiritual life of the country, to preserve traditions and customs.

Key words: shrines, sanctuaries, temples, chillahs, rituals, ceremonies.

About the author: *Feruza M. Hayitova* – Independent Researcher, Pedagogical University of Tashkent State named after Nizomiy.

For citation: Hayitova, F. M. "Conducted in Shrines and Sanctuaries Rituals: Traditionalism and Transformative Processes". *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 71—81.

References

- Abdulhatov, N., Hajdarova, Z., Azimov, O. 2002. *Bibi Ubajda tarihi*. Fargona.
- Abdulhatov, N. U. 2008. *Mesto palomnichestva v zhizni naselenija Ferganskoj doliny (po materialam svjatyh mest Ferganskoj viloyata)*. Avtoref. dis. ... kand. ist. nauk. Tashkent.
- Abramzon, S. M. 1978. "Predmety kul'ta kazahov, kirgizov i karakalpakov". *Material'naja kul'tura i hozjajstvo narodov Kavkaza, Srednej Azii i Kazahstana* 56. L.: Nauka.
- Ashirov, A. 2007. *Uzbek halqining jetiqod va marosimlari*. Toshkent.
- Hamdamova, S. 2003. "Furqat lirikasida ostona obrazi". *Uzbek tili va adabijoti* 5: 63-65.
- Hajitova, F. 2012. *Dala tadqiqotlari*: Kasbi tumani,
- Hajitova, F. 2011. *Dala tadqiqotlari*: Jakkabog tumani.
- Hajitova, F. 2012. *Dala tadqiqotlari*: Nishon tumani. Mergancha qishlogi.
- Hajitova, F. 2011. *Dala tadqiqotlari*: Shahrisabz tumani.
- Hajitova, F. 2012. *Dala tadqiqotlari*: Qashqadarjo viloyati. Shahrisabz tumani. Temirchi qishlogi.
- Islom jenciklopedijasi*. 2004. Z. Husniddinov tahriri ostida. Toshkent: Uzbekiston millij jenciklopedijasi.
- Snesarev, R. P. 1983. *Horezmskie legendy kak istochnik po istorii religioznh kul'tov Srednej Azii*. Moskva: Nauka.